

Jismoniy shaxslar tomonidan mobil qurilmalarni olib kirishda bojxona to'lovlari undirilmaydigan cheklangan me'yorlaridan qat'iy nazar, deklaratsiya to'ldiriladi va qurilma ro'yxatdan o'tkaziladi. Mobil qurilmaning IMEI-kodlarini quyidagicha ro'yxatdan o'tkazish mumkin:

Tizim operatorining www.uzimei.uz saytida; Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali saytida: www.my.gov.uz;

UZIMEI tizimi operatorida (Toshkent sh., Olmazor tum., Sebzor mavzesi, 18-A), mobil aloqa operatorlari (MobiUz, UCELL).

IMEI-kod, SIM-karta almashtirilishidan qat'iy nazar, bir marta ro'yxatga olinadi. Ushbu reglament O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 463-son va 778-son qarori bilan belgilangan. Jismoniy shaxslar tomonidan xalqaro pochta yoki kuryerlik jo'natmalari orqali olib kirilgan mobil qurilmalar Tizim operatori yoki Tizim ro'yxatga oluvchisiga shaxsan murojaat etish yo'li bilan pochta identifikatorining shtrix kodi, kalendar shtempeli bo'lgan konvertni ko'rsatgan holda amalga oshiriladi.

Mobil qurilmaning IMEI-kodi holatini quyidagicha tekshirish mumkin:

1. UZIMEI tizimi operatorining www.uzimei.uz saytida;
2. 1170 qisqa raqamiga SMS yuborgan holda;
3. *1170# USSD so'rovi orqali.